

E'lon

ATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan davlat xaridlari amalga oshirilishida tanlov komissiyasi organlari, xarid tashabbuskori, ishchi organ, ishchi guruh a’zolari hamda xaridga aloqador bo’lgan boshqa shaxslarning o’db-axloq qoidalari

ATB “Qishloq qurilish bank” Markaziy idorasi va filiallari tomonidan davlat xaridlari amalga oshirilayotganda quyidagi o’db-axloq qoidalari rioya qilinishi lozim:

1. Tanlov (tender) komissiyasi a’zolari soha bo’yicha ma’lumoti bo’lishi, doimiy ravishda o’z bilim malakasini oshirib borishi va shu sohada kasbiy mahoratli mutaxassis bo’lishi lozim;

2. Davlat xaridi amalga oshirish jarayonida xaridga aloqador shaxslar qaror qabul qilinmaguncha ma’lumot oshkor qilmaydi;

3. Tanlov (tender) komissiyasi a’zolari: - bir biri bilan yoki tanlov (tender) ishtirokchilari bilan til biriktirmaydi; - tanlov (tender) ishtirokchilari bilan muloqatga kirishganda qonun doirasida, xushmuomala bilan javob beradi; - qaror qabul qilishda, qonuniyatchilik, o’z bilim, fikr va tahlillariga asoslangan holda mustaqil qaror qiladi.

4. Tanlov (tender) komissiyasi a’zolari va boshqa xodimlar tomonidan ishtirokchilar hamda ijrochilardan moddiy va nomoddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

5. Tanlov (tender) komissiyasining a’zolari hamda boshqa xodimlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o’z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo’lishi mumkin bo’lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas;

Ushbu bandning birinchi qismida ko’rsatilgan shaxslar: - shaxsiy manfaatdor emasligini, shuningdek o’z oila a’zolarining manfaatdor emasligini kafolatlashi kerak, aks holda shaxsiy manfaatdorlik hamda boshqa ishtirokchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida ziddiyat yuzaga keladi yoki kelishi mumkin; - manfaatlarning istalgan potensial, taxmin qilinayotgan yoki mavjud to’qnashuvi haqidagi axborotning oshkor etilishini kafolatlashi kerak. Mavjud yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida xabar topgan, ushbu bandning birinchi qismida ko’rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarga xabar qilib, bir vaqtning o’zida vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi to’g’risida ma’lumotlar olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo’yicha o’z vaqtida choralar ko’rishi shart.

04.06.2019

АТБ “Қишлоқ қурилиш банк” Янгиобод филиали Янги банк биноси қурилиши муносабати билан лойиха ҳужжатларини тайёрлаш бўйича корхона ва ташкилотлар ўртасида танлов эълон қилади.

Танловда тижорат таклифлари 2019 йилнинг 07 июн 17:00 га қадар қабул қилинади.

Танлов шартлари бўйича батафсил маълумотларга эга бўлиш учун қўйидаги манзилга ёки телефон рақамига мурожат қилишингиз мумкин:

Манзил: Жиззах вилояти Янгиобод тумани Янгиобод ШФЙ Мустақиллик кўчаси 2 уй

Телефон: (+99872) 771-63 -44, 771-63-46

<http://qishloqqurilishbank.uz/uz/tenders/3648/>

© 2019 © Qishloq Qurilish Bank